Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti Filologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti
70110701 - O'zbek tili va adabiyoti
2-bosqich yo‘nalishi talabalariga 3-semestr uchun
« Lingvodidaktika asoslari » fanidan yakuniy nazorat savollari
Imtihon shakli: yozma

TASDIQLAYMAN
O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i
_____ I.Madatov
2025-yil 14-oktabr

Mavzu raqami	1-QISM “OSON SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning kirish qismidan asosan nazariy savollardan iborat bo’ladi	2-QISM “ODDIY SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 1-rejasidan asosan mulohazaviy savollardan iborat bo’ladi	3-QISM “MURAKKAB SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 2-rejasidan asosan qoidalar, teoremalar, kabi savollardan iborat bo’ladi	4-QISM “MURAKKAB SAVOLLAR 2” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 3-rejasidan asosan tendensiyalar, paradigmalar, konsepsiyalar kabi savollardan iborat bo’ladi	5-QISM “QIYIN SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning xulosa yani yakuniy qismidan asosan talabani mustaqil fikrlashga, mavzuni to’liq anglashga yo’naltiradigan savollardan iborat bo’ladi
1	Ona tili didaktikasining tadqiqot predmeti nima va uning asosiy uzvlarini tushuntiring. (Tayanch tushunchalar: o‘qituvchi faoliyati, o‘quvchi faoliyati, o‘quv materiali, o’zaro ta’sir)	An’anaviy “Ona tili o‘qitish metodikasi” va zamonaviy “Ona tili didaktikasi” tushunchalarining metodologik farqlarini qiyosiy jihatdan ko‘rsatib bering. (Tayanch tushunchalar: xususiy didaktika, pedagogik-psixologik umumlashma, tabiiy laboratoriya)	Ta’lim sharoitida ona tili didaktikasining umumiy va xususiy didaktik kategoriyalari tizimi qanday farqlanadi? (Tayanch tushunchalar: umumiy didaktik kategoriyalar, xususiy kategoriyalar, grammatik tushuncha, lingvistik mashq)	Ona tili ta’limi maqsadining tadrijiy taraqqiyotida formal, substansial va kognitiv-pragmatik yo’nalishlarning metodologik ziddiyatlari nimada namoyon bo’ladi? (Tayanch tushunchalar: formal grammatizm, substansial tilshunoslik, UMIS va YHVO, kognitiv-pragmatik yondashuv)	Falsafiy “Imkoniyat va voqelik” kategoriyasiga tayanib, ona tili darslarida [tort] leksemasi misolida o‘quvchilarning til imkoniyatlarini nutqda voqelantirish mexanizmini loyihalang.
1	Ona tili didaktikasining bosh maqsadi va asosiy vazifalari haqida ma’lumot bering. (Tayanch tushunchalar: nutq madaniyati, adabiy til me’yorlari, og‘zaki va yozma nutq)	Ona tili didaktikasida 'Nima uchun o'qitiladi?, 'Nega shunday o'qitiladi?', 'Nima o'qitiladi?' va 'Qanday o'qitiladi?' savollarining didaktik talqinini ochib bering. (Tayanch tushunchalar: maqsad, tamoyil, ta'lim mazmuni, metodlar)	Ona tili didaktikasining ilmiy-tadqiqot metodlari (kuzatish, tajriba-sinov, induksiya va deduksiya, modellashtirish) tizimini izohlang. (Tayanch tushunchalar: kuzatish, tajriba-sinov, analiz va sintez, faraz, loyihalashtirish)	Maktabda ona tili o'qitishning nazariy asoslari sifatida til va jamiyat, til va tafakkur hamda til va nutq munosabatlarini tahlil qiling. (Tayanch tushunchalar: ijtimoiy hodisa, tafakkur quroli, lison va nutq dikotomiyasi)	5-sinfda o'qituvchi tayyor ta'rifni bermay, o'quvchilarga matn orqali yangi kategoriyani mustaqil kashf ettirish kognitiv dars algoritmini yozma loyihalashtiring.
2	Ona tili predmetining umumiy ta’rifi va uning ikki qavatli (variusli) tuzilishi haqida ma’lumot bering. (Tayanch tushunchalar: ona tili predmeti, ustki qavat, ikkinchi qavat, nutq malakalari)	“Ona tilidan ma’lumot mazmuni” va “Ona tilidan ta’lim mazmuni” tushunchalarining o‘zaro nisbatini ochib bering. (Tayanch tushunchalar: ma’lumot mazmuni, ta’lim mazmuni, umumiylik va xususiylik, dinamika)	Ona tilidan ma’lumot mazmunini moddiylashtirish darajalari va ularning me’yoriy loyihalarini tahlil qiling. (Tayanch tushunchalar: moddiylashtirish, o‘quv rejasi, o‘quv dasturi, ona tili darsligi)	O'zbek tilshunosligi fani bilan maktab ona tili o‘quv predmeti o‘rtasidagi vazifaviy, hajmiy va strukturaviy tafovutlarni ilmiy jihatdan asoslang. (Tayanch tushunchalar: fan va o‘quv predmeti, ijtimoiy institut, didaktik ishlov, hajmiy ko’lam)	Darslik tarkibidagi 'Asosiy matn' (nazariy va amaliy), 'Qo'shimcha matn' hamda 'Izoh matn'lar tizimining o'quvchi kognitiv faoliyatidagi vazifalarini taqqoslab, darslik fragmenti tuzilishini tahliliy baholang.
2	Ona tili predmetining fonetik, leksik va grammatik tomonlari hamda ularning o‘zaro aloqadorligi haqida ma’lumot bering. (Tayanch tushunchalar: fonetik sath, leksik sath, grammatik sath, nutqiy ko’nikma)	Ona tili darsliklarida matndan tashqari kiritmalar (savol-topshiriqlar, illyustratsiyalar, apparat) qanday didaktik vazifalarni bajaradi? (Tayanch tushunchalar: o'zlashtirishni tashkil etish, bezash, faoliyatni yo'naltirish)	Ona tili ta'limida 'Hajm' va 'Ko'lam' tushunchalari qanday mezonlarga ko'ra farqlanadi? (Tayanch tushunchalar: miqdoriy ko'rsatkich, sifat ko'rsatkichi, optimallik)	Ta'lim mazmunining to'rt tarkibiy qismi (bilimlar, ko'nikma-malakalar, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlar tizimi)ning darslikdagi integratsiyasini tahlil qiling. (Tayanch tushunchalar: I.Y.Lerner nazariyasi, emotsional baholash, munosabatlar tizimi)	5-sinf darsligidagi biror mavzu bo'yicha berilgan topshiriqlar majmuasini tahlil qiling va undagi reproduktiv topshiriqlarni kognitiv-amaliy topshiriqlarga aylantirish loyihasini taqdim eting.
3	Ta’lim sharoitida ona tilini o‘zlashtirish qonuniyati deganda nima tushuniladi va uning asosiy turlarini sanang. (Tayanch tushunchalar: didaktik qonuniyat, universal bog‘lanish, shakl va mazmun, til va nutq)	“Nutqdan tilga qarab borish” tamoyilining mohiyati nimada va u an’anaviy ta’lim qolipidan qanday farqlanadi? (Tayanch tushunchalar: tildan nutqqa, nutqdan tilga, induktiv tahlil, qoidabozlikni cheklash)	Yozma nutqni og‘zaki nutqqa chog‘ishtirib o‘rgatish tamoyilining amalga oshirilish mexanizmlari qaysilar? (Tayanch tushunchalar: harf va tovush, orfogramma va talaffuz, punktuatsiya va ohang, og‘zaki va yozma mashq)	Nutq organlari va qo‘l muskullarini yetarli mashq qildirish tamoyilining psixofiziologik asoslarini K.D.Ushinskiy qarashlariga tayanib tahlil qiling. (Tayanch tushunchalar: analizatorlar, sensorika, ikkinchi signallar tizimi, muskul xotirasi)	Ona tili ta’limida “Tarixiylik tamoyili”ni sinxroniya va diaxroniya uyg‘unligida leksik yoki fonetik sathda (masalan, adog‘ > oyoq, yip > ip, kengash) dars jarayoniga tatbiq etish loyihasini ishlab chiqing.
3	Til ta'limida tabiiylikka rioya qilish tamoyili haqida ma'lumot bering. (Tayanch tushunchalar: maktabgacha nutq tajribasi, tabiiylik, jonli nutq muhiti, ostensiv tushuntirish)	Til hodisalarini ajratishga o'rgatish tamoyilining leksik va grammatik sathdagi amaliy ahamiyatini izohlang. (Tayanch tushunchalar: differensiatsiya, fonematik eshitish, leksik-semantik tahlil)	O'quvchilar nutqining ifodaliligi va emotsionalligini oshirib borish tamoyili qanday usullar bilan amalga oshiriladi? (Tayanch tushunchalar: mantiqiy urg'u, nutq tempi, pauza, un kuyi, diksiya)	Til o'rganishda induktiv va deduktiv yo'llarning o'zaro dialektik aloqadorligini metodologik jihatdan tahlil qiling. (Tayanch tushunchalar: qonuniyatdan hodisaga, hodisadan qonuniyatga, aqliy operatsiyalar)	O'quvchilar nutqida uchraydigan shevaviy talaffuz va orfografik xatoliklarni bartaraf etishga qaratilgan 'Yozma nutqni og'zaki nutqqa chog'ishtirish' mashqlar majmuasini tuzing.
4	Lingvistik bilim va lingvistik tushuncha atamalarining farqli jihatlarini aniqlang. (Tayanch tushunchalar: lingvistik bilim, lingvistik tushuncha, lisoniy in’ikos, hukm)	Lingvistik istiloh (termin)ning tushunchani shakllantirish va bilimlarni chegaralashdagi vazifasini izohlang. (Tayanch tushunchalar: lingvistik istiloh, tushuncha chegarasi, tafakkurni o‘stirish)	Lingvistik bilimlarni o‘zlashtirish jarayonidagi obyektiv qiyinchiliklar qanday omillar bilan belgilanadi? (Tayanch tushunchalar: obyektiv qiyinchilik, abstraktlik darajasi, omoformalar, ko‘p ma’noli qo‘shimchalar)	Nima sababdan lingvistik bilimlarni o‘zlashtirish biologik yoki fizik bilimlarni o‘zlashtirishga nisbatan “abstraksiyaning ikkinchi qavati” deb baholanadi? (Tayanch tushunchalar: hissiy bilish, ratsional bilish, tildan tashqari voqelik, meta-til)	Lingvistik bilimlarni o‘zlashtirishda o‘qituvchining metodik xatolaridan kelib chiqadigan subyektiv qiyinchiliklarni bartaraf etuvchi 3 bosqichli differensial o‘quv topshirig‘i namunasini loyihalang.
4	Lingvistik tushuncha tarkibidagi asosiy va ikkinchi darajali belgilar haqida ma’lumot bering. (Tayanch tushunchalar: zaruriy belgilar, qat’iy ko’rsatkich, fakultativ belgilar)	Grammatik shakl va grammatik ma'no munosabatining tushuncha hosil qilishdagi o'rnini ochib bering. (Tayanch tushunchalar: omoformalar, omomorfemalar, polifunksionallik, kontekst)	O'zbek tilidagi affiksal omoformalar (-chi, -ma, -m, -ish)ning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishidagi qiyinchiliklarni bartaraf etish yo'llarini tushuntiring. (Tayanch tushunchalar: so'z yasovchi, shakl yasovchi, funktsional tahlil)	Lingvistik tushunchalarni o'rganishda 'til-me'yor-nutq' tizimining didaktik talqinini asoslang. (Tayanch tushunchalar: lisoniy birlik, adabiy me'yor, nutqiy voqelanish)	O‘quvchilar tomonidan 'ot' va 'harakat nomi' (suvoq, o'roq, terim, o'qish) o'rtasidagi farqni aniqlashga yo'naltirilgan qiyosiy kognitiv topshiriq ishlab chiqing.
5	Lingvistik bilimlarni o‘zlashtirishning asosiy didaktik bosqichlari qaysilar? (Tayanch tushunchalar: umumiy xususiyatlar bilan tanishish, asosiy belgilarni ajratish, nutqiy rolni egallash, umumlashtirish)	Psixologiyadagi “generalizatsiya” va didaktikadagi “umumlashtirish” tushunchalari qanday farqlanadi? (Tayanch tushunchalar: N.A.Menchinskaya, to‘liq tahlil, tutash tushunchalar, ikkilamchi belgilar)	Fe’l zamonlari kategoriyasini o‘zlashtirishda o‘quvchilar aqliy faoliyatining leksik-semantik bosqichdan grammatik kategoriyaga va undan nutqqa harakatlanish texnologiyasini tushuntiring. (Tayanch tushunchalar: nutq momenti, leksik-semantik tahlil, zamon ko‘rsatkichlari, kontekst)	Harakat nomlarini sifatdosh, ot yoki ravishdoshdan farqlashda “asosiy indikator” va “qo‘shimcha indikator” tushunchalarining didaktik mohiyati nimada? (Tayanch tushunchalar: harakat nomi, otdosh, morfologik omoformalar, so‘roq indikatori, nisbat)	8-sinf darsligidagi “Yigit kishining uyalgani – o‘lgani; eman daraxtining egilgani – singani” maqoli tahlilida sifatdosh va sof fe’l chalkashligini to‘g‘rilash dars fragmentini ishlab chiqing.
5	Ega tushunchasini shakllantirishda morfologik, sintaktik va mantiqiy belgilar uyg‘unligi haqida ma’lumot bering. (Tayanch tushunchalar: bosh kelishik, hokimlik, predikativ munosabat, subyekt)	Lingvistik bilimlarni o'zlashtirish jarayonida tahlil (analiz) va sintez aqliy operatsiyalarining o'rnini izohlang. (Tayanch tushunchalar: qismlarga ajratish, butunga birlashtirish, qonuniyatni ochish)	O'quvchilar tomonidan grammatik tushunchalarni o'zlashtirishda 'abstraksiyalash' va 'konkretlashtirish' operatsiyalarining almashinish qonuniyatini tahlil qiling. (Tayanch tushunchalar: mavhumlashtirish, faktik material, modellash)	Til ta'limida substansial tahlil (lisoniy mohiyat) bilan funksional tahlil (nutqiy vazifa)ning didaktik birligini asoslab bering. (Tayanch tushunchalar: invariant va variant, lisoniy paradigma, sintagmatika)	Ravishdosh shakllarining (-b, -ib, -gach, -guncha) uslubiy sinonimiyasini o'rganish bo'yicha 3 bosqichli kognitiv mashg'ulot loyihasini ishlab chiqing.
6	“Ta’lim metodi” va “ta’lim usuli” tushunchalarining didaktik farqini ta’riflang. (Tayanch tushunchalar: metod, usul, butun va bo‘lak, maqsadga erishish yo‘li)	Bilim berishga mo‘ljallangan an’anaviy deduktiv-reproduktiv metodlarning mohiyati va tarkibini tushuntiring. (Tayanch tushunchalar: retroskopik ta’lim, og‘zaki bayon, hikoya, ma’ruza, passiv tinglovchi)	O.Roziqov va M.Mahmadovlar tomonidan ilgari surilgan “O‘zaro ta’sir” konsepsiyasi asosida ta’lim metodlari qanday guruhlanadi? (Tayanch tushunchalar: o‘zaro ta’sir, tashkil etish va boshqarish metodlari, nazorat etish metodlari)	Evristik suhbat metodining tashkiliy-mantiqiy bosqichlarini noevristik (qat’iy reproduktiv) suhbatdan farqlovchi jihatlarini tahlil qiling. (Tayanch tushunchalar: evristik suhbat, Sokrat metodi, noevristik suhbat, muammoli savol, mustaqil xulosa)	9-sinfda “Ohang yordamida bog‘langan qo‘shma gaplarda tinish belgilari” mavzusini evristik suhbat metodi orqali o‘qitishning to‘liq dialogik dars ishlanmasini modellashtiring.
6	Ona tili ta'limida ma'ruza metodi va uning samaradorligini oshiruvchi 4 ta didaktik variantini bayon qiling. (Tayanch tushunchalar: maktab ma'ruzasi, muammoli ma'ruza, ko'rgazmali ma'ruza, qatyma aloqa)	Ona tili ta'limida ko'rgazmali metodlar (illyustratsiya, demonstratsiya, tabiiy ko'rgazma)ning tafakkurni rivojlantirishdagi o'rnini tushuntiring. (Tayanch tushunchalar: ko'rish uquvi, texnik vositalar, obrazli ko'rgazmalilik)	Ta'lim metodlarini tasniflashga oid ilmiy yondashuvlar (S.I.Perovskiy, I.Y.Lerner, M.I.Maxmutov, Y.K.Babanskiy)ni qiyosiy tahlil qiling. (Tayanch tushunchalar: bilim manbalari, bilish faoliyati xarakteri, o'qitish va o'qish usullari birligi)	Kognitiv-pragmatik metodning reproduktiv metoddan ustunligini lisoniy shaxsni shakllantirish konsepsiyasi asosida asoslang. (Tayanch tushunchalar: kommunikativ layoqat, kreativlik, tayyor bilimdan voz kechish)	O'quvchilarda matn tahlili asosida yangi mavzuni mustaqil tushunishga yo'naltirilgan 'Muammoli-tadqiqiy metod' dars ssenariysini ishlab chiqing.
7	“Lingvistik mashq” tushunchasiga ilmiy ta’rif bering va uning grammatik mashqdan farqini ayting. (Tayanch tushunchalar: lingvistik mashq, o‘quv holati, tatbiq etish, ko’nikma va malaka)	Lingvistik mashqning invariant tarkibiy qismlari qaysilar va ularning doimiyligi nimada ko‘rinadi? (Tayanch tushunchalar: invariant, mazmun, maqsad, funksiya, mashq qilish usuli)	Nutq shakllariga ko‘ra lingvistik mashqlar qanday tiplarga bo‘linadi? Har biriga qisqacha tavsif bering. (Tayanch tushunchalar: evristik shakllangan, adaptiv, noadaptiv, alternativ, algoritmik mashqlar)	Ta’lim jarayoni bosqichlariga ko‘ra lingvistik mashqlarning funksional turlarini tizimli tahlil qiling. (Tayanch tushunchalar: tayyorlovchi, hamroh, mustahkamlovchi, takrorlash, umumlashtiruvchi mashqlar)	Qo’shma gap turlarini (bog‘langan, ergashgan, bog‘lovchisiz) aniqlash bo’yicha N.Shukrullayev konsepsiyasiga asoslangan 3 bosqichli “Algoritmik mashq” modelini tuzing.
7	Lingvistik mashqlarning mazmuniga ko'ra turlari (fonetik, leksik, morfologik, sintaktik, stilistik) haqida ma'lumot bering. (Tayanch tushunchalar: sathiy mashqlar, integrativ mashqlar, nutqiy ko'nikma)	Prosodik mashqlar nima va ularning ona tili ta'limidagi ahamiyatini ochib bering. (Tayanch tushunchalar: diksiya, fonematik eshitish, unlilar artikulyatsiyasi, ovoz tembri)	Lingvistik mashqlar tizimini yaratishda 'Vorislik tamoyili' va unga qo'yiladigan didaktik talablarni tahlil qiling. (Tayanch tushunchalar: tizimlilik, izchillik, o'quv materialiga adekvatlik, optimallik)	O'quv topshirig'i bilan lingvistik mashq o'rtasidagi obyektiv-subyektiv munosabatni metodologik jihatdan asoslang. (Tayanch tushunchalar: pedagogik ishlov, o'quv holati, subyekt faoliyati, avtomatlashuv)	Ona tili darslarida o'quvchilarning fonematik eshitish va to'g'ri talaffuz (diksiya) malakasini rivojlantiruvchi 5 ta prosodik mashq namunasini tuzing.
8	Ona tili ta’limida mustaqil ish nima va u qanday didaktik xususiyatga ega? (Tayanch tushunchalar: mustaqil ish, o‘qituvchi ko‘rsatmasi, aqliy va amaliy topshiriq, subyekt)	Darslikdagi qoidalar va ta’riflar ustida mustaqil ishlashning asosiy shakllarini tavsiflang. (Tayanch tushunchalar: dalillarni tahlil qilish, qismlarga ajratish, istiholarga izoh yozish, hisobot tayyorlash)	Muammoli ta’lim darslarida “Muammoli vaziyat yaratish” va uni hal qilishning psixologik-didaktik zanjirini tushuntiring. (Tayanch tushunchalar: muammoli vaziyat, ziddiyat, gipoteza (faraz), yechim, xulosa)	Mustaqil ishlarni tashkil etishda o‘quvchilarning faoliyat darajalari (qayta xotirlash, qisman izlanuvchanlik, ilmiy-ijodiy faoliyat) qanday tabaqalanadi? (Tayanch tushunchalar: reproduktivlik, evristik izlanish, tadqiqiy mustaqillik, axborot banki)	Maktab ona tili darslarida o‘quvchilar mustaqil tadqiq qilishi uchun tildagi grammatik ziddiyatlar asosida “Muammoli vaziyat ssenariysi”ni ishlab chiqing.
8	Ona tili darslarida mustaqil ishlarni tashkil etishga qo'yiladigan asosiy didaktik talablar haqida ma'lumot bering. (Tayanch tushunchalar: tayyorgarlik, tushunarlilik, individuallashtirish, vaqt me'yori, nazorat)	Darslikdagi amaliy materiallar ustida mustaqil ishlashning metodik yo'llarini tushuntiring. (Tayanch tushunchalar: variantli mashqlar, jadvallar tuzish, insho va bayon rejasini ishlab chiqish)	Muammoli dars tiplari: muammoli hikoya, muammoli ma'ruza va muammoli amaliy ishlarning o'ziga xosligini tahlil qiling. (Tayanch tushunchalar: bilishga ehtiyoj, muammoli bayon, aqliy ziddiyat)	Ona tili ta'limida mustaqil fikrlashni shakllantirishning psixologik qonuniyatlarini (iroda, intellektual faollik, mustaqillik) asoslang. (Tayanch tushunchalar: A.Disterveg qoidasi, kognitiv rivojlanish, o'z-o'zini baholash)	O'quvchilarda lug'atlar (izohli, ma'nodosh, shakldosh) bilan mustaqil ishlash madaniyatini shakllantiruvchi dars loyihasini taqdim eting.
9	Didaktikada dars tushunchasi va ona tili darslarining maqsadi bo’yicha ikkita yirik guruhini ayting. (Tayanch tushunchalar: dars, ta’limiy darslar, nazorat darslari, yaxlit tizim)	Ta’lim jarayoni maqsadiga ko‘ra ta’limiy darslar qanday tiplarga bo’linadi? (Tayanch tushunchalar: yangi bilim berish, ko‘nikma va malaka shakllantirish, takrorlash, xatolar ustida ishlash)	Ona tili darsining tarkibiy qismlari (etaplari) va ularga ajratiladigan vaqtning taxminiy me’yoriy taqsimotini tahlil qiling. (Tayanch tushunchalar: tashkiliy qism, uy vazifasi, yangi mavzu, mustahkamlash, xulosa va baholash)	Ona tilidan nazorat darslarining tipologik tuzilishi va ularning yo’nalishlarini qiyoslang. (Tayanch tushunchalar: til hodisalarini o‘zlashtirish nazorati, imloviy-punktuatsion nazorat, nutqiy malakalar nazorati)	An’anaviy 45 daqiqalik dars bosqichlaridagi vaqt isrofi va reproduktivlikni bartaraf etuvchi “Optimallashtirilgan kognitiv dars modeli” loyihasini taqdim eting.
9	Ona tili darslarining tipologik tamoyillari (ilmiylik, tizimlilik, kommunikativlik, integratsiyalashuv) haqida ma'lumot bering. (Tayanch tushunchalar: tipologik tamoyillar, dars strukturasi, didaktik maqsad)	O'quv predmeti mazmuniga ko'ra ona tili darslarining o'ziga xos xususiyatlarini izohlang. (Tayanch tushunchalar: fonetika darslari, leksika darslari, grammatika darslari, uslubiyat darslari)	Ona tili darslarida vaqt taqsimoti va dars bosqichlarining sinf o'quvchilari saviyasiga ko'ra modifikatsiyalanishini tahlil qiling. (Tayanch tushunchalar: egiluvchan reja, dars bosqichlarini integratsiyalash, tejalgan vaqt)	Zamonaviy ta'limda noan'anaviy dars shakllari (integral dars, konferensiya dars, musobaqa dars)ning lingvodidaktik qiymatini asoslang. (Tayanch tushunchalar: integrativ yondashuv, motivatsiya, nostandart tafakkur)	Morfologiya bo'limining yakuniy bosqichida o'tkaziladigan 'Televizion-intellektual o'yin darsi' ssenariysini loyihalashtiring.

10	Yangi materialni o‘rgatish darsining bosh maqsadi va asosiy vazifalari nimalardan iborat? (Tayanch tushunchalar: yangi bilim, idrok etish, tushuncha hosil qilish, birlamchi mustahkamlash)	O‘tilganlarni takrorlash va malaka hosil qilish darslarining yangi bilim berish darsidan asosiy metodik farqlari nimada? (Tayanch tushunchalar: takrorlash, malakani avtomatlashtirish, mashqlar tizimi, mustaqillik)	Bilim va malakalarni umumlashtirish va tekshirish darslarining tuzilishi hamda ularda qo‘llaniladigan sintetik topshiriqlar xususiyatini yoritib bering. (Tayanch tushunchalar: tizimlashtirish, umumlashtiruvchi tahlil, sintetik topshiriq, darajalanish)	Yozma ishlardan so‘ng o‘tkaziladigan “Xatolar ustida ishlash” darsining lingvodidaktik texnologiyasi va xatolarni tasniflash tartibini tahlil qiling. (Tayanch tushunchalar: xatolar ustida ishlash, tipik xatolar, qizil siyoh belgilari, korreksiya)	Boshlang‘ich va o‘rta bo‘g‘indagi “So‘z turkumlari” mavzusi yakunida o‘quvchilar xotirasidagi ziddiyatlarni bartaraf etuvchi “Umumlashtiruvchi tahlil darsi”ning texnologik xaritasini ishlab chiqing.
10	Ona tilidan dars mazmunnomasi (konspekt)ga qo'yiladigan ilmiy-metodik talablar haqida ma'lumot bering. (Tayanch tushunchalar: dars maqsadi, dars jihozi, bosqichma-bosqich reja, kutilayotgan natija)	Yangi materialni o'rgatish darsida o'quvchilar faolligini oshirish usullarini (muammoli vaziyat, faktlar tahlili) tushuntiring. (Tayanch tushunchalar: tayyorlovchi suhbat, qiyoslash, umumlashtirish, qoidani chiqarish)	Ko'nikma va malakalarni shakllantirish darslarida mustaqil mashqlarning oddiydan murakkabga qarab rivojlanish tizimini tahlil qiling. (Tayanch tushunchalar: namunaga ko'ra mashq, o'zgartirib bajarish, ijodiy tatbiq)	Ona tili darslarida ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar birligining ta'minlanishini didaktik jihatdan asoslang. (Tayanch tushunchalar: uch yagona maqsad, shaxs kamoloti, milliy tarbiya)	9-sinfda 'Ergash gapli qo'shma gaplar' bo'limi bo'yicha bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish darsining 45 daqiqalik dars ishlanmasini tuzing.
11	Ta’lim texnologiyasi tushunchasining pedagogik ta’rifi nima va uning an’anaviy metodikadan tub farqi qaysi jihatda? (Tayanch tushunchalar: pedagogik texnologiya, kafolatlangan natija, maqsad va vosita, loyihalashtirish)	Ona tili ta’limi tizimida “Maqsad – Mazmun – Usul – Vosita – Natija – Etalon” zanjirining o‘zaro mutanosibligi qanday ta’minlanadi? (Tayanch tushunchalar: didaktik zanjir, o‘zaro mutanosiblik, ta’lim etaloni, natijaviylik)	Ongli verbal-kognitiv ta’lim (OVKT) texnologiyasining asosiy qoidalari va uning bosh tamoyili bo’lgan “kashfiyot usuli” (discovery)ni izohlang. (Tayanch tushunchalar: D.Ozbel, kashfiyot usuli, verbal-kognitivizm, tadbirkor shaxs)	Ta’limning silsilaviyligi (sikliliigi) va testologiyaning pedagogik texnologiyadagi boshqaruvchanlik funksiyasini tahlil qiling. (Tayanch tushunchalar: silsilaviylik, qaytma aloqa, diagnostik test, korreksiya)	Ona tili darslarida zamonaviy interfaol texnologiyalar (“FSMU”, “Venn diagrammasi”, “Bumerang”)dan foydalanib, murakkab mavzuni o’zlashtirish bo’yicha texnologik dars xaritasini loyihalang.
11	Ona tili ta'limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va multimedia vositalaridan foydalanishning afzalliklari haqida ma'lumot bering. (Tayanch tushunchalar: elektron darslik, taqdimot, kompyuter dasturlari, interfaollik)	Didaktik ta'minot tushunchasi va ona tili darslarining me'yoriy, ta'limiy hamda moddiy ta'minoti tarkibini tushuntiring. (Tayanch tushunchalar: me'yoriy hujjatlar, axborot banki, didaktik materiallar, texnik vositalar)	Texnologik yondashuvda 'Diagnostik maqsad qo'yish' va natijalarni obyektiv o'lchash mexanizmlarini tahlil qiling. (Tayanch tushunchalar: kutilayotgan natija, monitoring, mezonli baholash, samaradorlik koeffitsienti)	Bixevioristik (xulq-atvor) ta'lim modeli bilan Kognitiv (ongli-idrokiy) ta'lim texnologiyasining metodologik qarama-qarshiligini asoslang. (Tayanch tushunchalar: stimul-reaksiya, passiv ijrochi, aqliy faollik, mustaqil kashfiyot)	7-sinfda 'Fe'l mayllari' mavzusini 'Klaster' va 'Insert' texnologiyalari uyg'unligida o'qitishning texnologik xaritasini ishlab chiqing.
12	PIRLS va PISA xalqaro baholash dasturlarining ona tili ta’limidagi asosiy maqsadi va tadqiqot obyektini ayting. (Tayanch tushunchalar: PIRLS, PISA, o‘qish savodxonligi, funksional savodxonlik)	PISA xalqaro tadqiqotida “O‘qish savodxonligi” (Reading literacy) tushunchasi qanday tarkibiy kognitiv ko‘nikmalarni qamrab oladi? (Tayanch tushunchalar: ma’lumotni topish, tushunish, mulohaza yuritish, baholash)	Lingvodidaktik testologiyada test topshiriqlarining turlari va ularni matematik-statistik tahlil qilish mezonlarini tushuntiring. (Tayanch tushunchalar: testologiya, yopiq va ochiq testlar, validlik, reliешonchlilik, diskriminatsiya)	Nima sababdan an’anaviy grammatik testlar o‘quvchining haqiqiy kommunikativ savodxonligini baholashda ojizlik qiladi? Lingvodidaktik nuqtayi nazardan asoslang. (Tayanch tushunchalar: retroskopik testlar, grammatizm, reproduktiv bilim, yozma va og‘zaki nutq)	PISA xalqaro baholash talablariga mos ravishda, yaxlit bo‘lmagan matn asosida tuzilgan 3 darajali lingvodidaktik topshiriqlar majmuasini ishlab chiqing.
12	Pedagogik testologiyada ochiq va yopiq turdagi test topshiriqlarining tuzilishi hamda distraktorlar tanlash qoidalari haqida ma'lumot bering. (Tayanch tushunchalar: test topshirig'i, to'g'ri javob, distraktor, muqobil variantlar)	PIRLS xalqaro baholash tizimida matn turlari (adabiy-badiiy va axborot matnlari) ustida ishlash xususiyatlarini ochib bering. (Tayanch tushunchalar: badiiy matn, axborot matni, to'g'ridan-to'g'ri xulosa, integratsiya)	Test natijalarini matematik-statistik qayta ishlashda o'rtacha hall, dispersiya va qiyinlik darajasining metodik ahamiyatini tahlil qiling. (Tayanch tushunchalar: statistik tahlil, normal taqsimot, test sifatini tekshirish)	Xalqaro baholash tizimlari (PISA, PIRLS)ning O'zbekiston Milliy o'quv dasturi mazmuniga integratsiyalashuv tamoyillarini asoslang. (Tayanch tushunchalar: kompetensiyaviy yondashuv, 21-asr ko'nikmalari, hayotiy vaziyatlar)	Badiiy matn parchasidan foydalanib, PIRLS mezonlari asosida 4-sinf o'quvchilari uchun 4 ta kognitiv darajadagi test savollari blokini tuzing.
13	Ta’limni optimallashtirish tushunchasining ilmiy ta’rifi nima va uning muallifi kim? (Tayanch tushunchalar: Y.K.Babanskiy, optimallashtirish, me’yor, vaqt va kuch sarfi)	Ona tili ta’limini optimallashtirishning asosiy o‘lchov birliklari (kriteriylari) qaysilar? (Tayanch tushunchalar: ta’lim sifati, me’yoriy vaqt sarfi, haddan tashqari yuklamani kamaytirish)	Ona tili darslarida ta’lim jarayonini optimallashtirish bosqichlari qanday amalga oshiriladi? (Tayanch tushunchalar: diagnostika, vazifalarni aniqlashtirish, mazmunni saralash, metodlarni tanlash, tahlil)	Nima sababdan ona tili ta’limida yagona universal, invariant metod bo‘lishi mumkin emas? Babanskiy va Potashnik qarashlariga tayanib asoslang. (Tayanch tushunchalar: universal metod yo‘qligi, invariantlik, muayyan sharoit, metodik moslashuv)	Maktab ona tili darslarida axborot yuklamasi va vaqt yo‘qotilishining oldini oluvchi “Ona tili ta’limini optimallashtirish modeli”ni biror murakkab mavzu misolida ishlab chiqing.
13	Ona tili ta'limida optimal variant tushunchasi va uni tanlash omillari haqida ma'lumot bering. (Tayanch tushunchalar: eng maqbul variant, ta'lim sharoiti, o'quvchilar imkoniyati)	O'quv materialini o'quv elementlariga ajratish orqali dars vaqtini tejash va samaradorlikni oshirish yo'llarini tushuntiring. (Tayanch tushunchalar: o'quv elementi, ikkinchi darajali faktlar, asosiy mag'iz)	Darsda vaqt yo'qotilishining asosiy sabablari (bir xil metodlar, samarasiz so'rov, qoidabozlik) va ularni bartaraf etish usullarini tahlil qiling. (Tayanch tushunchalar: vaqt taqsimoti, dars zichligi, faoliyat intensivligi)	Ona tili ta'limida differensial (tabaqalashtirilgan) yondashuvning optimallashtirishdagi rolini didaktik jihatdan asoslang. (Tayanch tushunchalar: kuchli, o'rta va bo'sh o'quvchilar, variativ topshiriqlar)	Ona tili darsida 15 daqiqalik vaqtni tejash imkonini beruvchi 'Uy vazifasini tezkor-avtomatlashtirilgan tekshirish va xulosalash' uslubiy loyihasini taqdim eting.
14	“Ta’lim etaloni” tushunchasiga ta’rif bering va uning Davlat ta’lim standartlari (DTS) bilan daxldorligini ayting. (Tayanch tushunchalar: ta’lim etaloni, davlat ta’lim standarti, andoza, malaka talablari)	Ona tili ta’lim etalonida o‘quvchilar egallagan bilim va malakalarni tekshirishning 3 parametrli standart ko‘rsatkichlarini izohlang. (Tayanch tushunchalar: o‘qish texnikasi, o‘zgalar fikrini anglash, fikrni yozma bayon etish)	Ta’lim etalonining tiplari va unga qo‘yiladigan pedagogik-didaktik talablarni tahlil qiling. (Tayanch tushunchalar: minimal etalon, optimal etalon, rivojlantiruvchi etalon, diagnostiklik)	Ta’lim etaloni vositasida ta’lim maqsadini “loyihalashtirish” (qoliplashtirish)ning gnoseologik mohiyatini sharhlang. (Tayanch tushunchalar: model, loyihalashtirish, obyekt va asliyat, kutilayotgan natija)	Umumiy o‘rta ta’lim bitiruvchilari uchun “Fikrni yozma bayon etish malakasi” parametri bo‘yicha 3 ta daraja talablarini taqqoslab, ball qo‘yish rubrikasini ishlab chiqing.
14	DTS va ta'lim etalonining ta'lim muassasasi hamda o'qituvchi uchun majburiylik xususiyati haqida ma'lumot bering. (Tayanch tushunchalar: davlat talabi, barqaror sifat, monitoring, kafolat)	Ta'lim etalonidagi 'O'qish texnikasi' parametri talablari (miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari) sinflar kesimida qanday rivojlanadi? (Tayanch tushunchalar: daqiqasiga so'z soni, ifodali o'qish, ohang, to'xtam)	Ta'lim etalonidagi 'O'zgalar fikri va matn mazmunini anglash' parametrining 3 ta darajasi mezonlarini tahlil qiling. (Tayanch tushunchalar: 1-daraja, 2-daraja, 3-daraja, qayta bayon qilish, sharhlash)	Kompetensiyaviy ta'lim etalonlarining an'anaviy 'BKMs' (bilim, ko'nikma, malaka) etalonlaridan sifat farqlarini asoslab bering. (Tayanch tushunchalar: tayanch kompetensiyalar, amaliy qo'llay olish layoqati, kreativlik)	O'quvchilarning yozma nutq savodxonligini baholash uchun xato turlari (orfografik, punktuatsion, uslubiy)ning balliga ta'sir etish mezonlari loyihasini ishlab chiqing.
15	O'quv materiali deganda nima tushuniladi va u ta'lim mazmuni bilan qanday bog'langan? (Tayanch tushunchalar: o'quv materiali, darslik tarkibi, oraliq zveno, pedagogik ishlov)	O‘quv materiali tarkibidagi “O‘quv elementi” nima va unga qanday didaktik talablar qo‘yiladi? (Tayanch tushunchalar: o‘quv elementi, adekvatlik, bir-birini to‘ldirish, qiyinlik, optimallik)	Zamonaviy “Algoritmik darslik-dasturlar” an’anaviy qoidaboz darsliklardan qaysi jihatlari bilan farqlanadi? (Tayanch tushunchalar: algoritmik darslik, topshiriqlar tizimi, tayyor qoidaning yo‘qligi, axborot banki)	Ona tili ta’limida darsliklarni “Axborot banklari” (turli o‘quv lug‘atlari, qomuslar) bilan integratsiyalash zaruriyatini kognitiv metodologiya asosida tahlil qiling. (Tayanch tushunchalar: axborot banki, o‘quv lug‘atlari, mustaqil tafakkur, darslik hajmini qisqartirish)	Amaldagi darsliklardan biror bo‘limni an’anaviy qoida yodlash qolipidan voz kechgan holda, ta’lim etaloniga mos “Algoritmik topshiriqlar tizimi” ko‘rinishida qayta loyihalang.
15	Ta'lim davrlarini (choraklar, yarim yilliklar, bosqichlar) ta'lim etaloni vositasida loyihalash tartibi haqida ma'lumot bering. (Tayanch tushunchalar: kalendar-mavzu reja, istiqbolli rejalashtirish, etalonga moslash)	Ona tili darsliklarini ta'lim etaloniga moslashtirish tamoyillari (materialning yetarliligi, didaktik ishlov)ni tushuntiring. (Tayanch tushunchalar: darslik tuzilishi, invariantlar, o'quv topshiriqlari majmuasi)	O'quv materialining qiyinlik (subyektiv) va murakkablik (obyektiv) parametrlarining darslik tuzishdagi muvozanatini tahlil qiling. (Tayanch tushunchalar: yosh xususiyatlari, aqliy operatsiyalar, o'quv yuklamasi)	Kelajak ona tili darsligining 'Elektron-kognitiv modeli' va uning o'quvchi mustaqil tafakkurini rivojlantirishdagi o'rnini asoslang. (Tayanch tushunchalar: gipermatn, interaktiv korpus, raqamli axborot banki)	7-sinf ona tili darsligining 'Ravish' bobini ta'lim etaloni talablari asosida qayta loyihalash texnologik xaritasini ishlab chiqing.